



O'QUVCHILARNING CHIZMACHILIK FANINI O'QITISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIALARNING O'RNINI VA AMALIY AHAMIYATI

Sadatov Chori Xolmurodovich¹

Tojmurotova Shaxnoza Azamat qizi²

¹ TerDUPI Musiqa ta'limi va tasviriy san'at kafedrasi mudiri

Email: sadatov@terdupi.uz

² TerDUPI Muhandislik grafikasi va dizayn nazaryasi

1-bosqich magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6335695>

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 17 – fevral 2022

Ma'qullandi: 22 – fevral 2022

Chop etildi: 27 – fevral 2022

KALIT SO'ZLAR

pedagogika, texnologiya, rivojlanish, informatsiya, chizmachilik, xotera, diqat.

ANNOTATSIYA

Hozirgi kunda ishlab chikarish texnologiyalari tezlik bilan rivojlanayotgan bir davrda ta'lim soxasi ham boshqa ishlab chikarish muassasalari kabi ilmiy, asoslangan yangi pedagogik texnologiyalar, informatsion ma'lumotlarni qo'llagan holda malakali mutaxassislar faoliyat yuritadigan raqobatbardosh, ilmiy, bilimli kishilarni Vatan ravnaqi uchun tayyorlab beradigan soxa sifatida rivojlanib bormoqda.

Bugungi tez o'zgaruvchan iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy hayot o'quvchi yoshlar dunyoqarashini shakllantirishda yangi pedagogik interfaol metodlardan keng foydalanishni taqozo qiladi, An'anaviy mashg'ulotlar olib borish asta sekin o'z o'rnini intensiv va interfaol metodlarga, noan'anaviy dars o'tish shakllariga bo'shatib bermoqda.

Mamlakatimizda ta'lim sohasini rivojlantirish jarayoniga yangi zamonaviy texnologiyalarni joriy etishdir. O'qituvchi o'z kasbiy bilimlaridan tashqari pedagogik-psixologik bilimlarni, yangi pedagogik texnologiyalar va o'qitish usullarini o'z ichiga olgan zarur pedagogik bilimga ham ega bo'lishi kerak.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishning asosiy maqsadi talabalar tomonidan o'tgan materialni oson o'zlashtirish va malaka

oshirish uchun samaradorlikka erishishdir.

Pedagogik texnologiya - bu o'qituvchi (tarbiyachi)ning o'quvchi (talaba)larga o'qitish vositalari yordamida muayyan sharoitlarda ta'sir ko'rsatishi va bu faoliyat mahsuli sifatida ularda oldindan belgilangan shaxs sifatlarini intensiv shakllantirish jarayonidir. Pedagogik texnologiya - o'quv jarayonini texnologiyalashtirishni butunligicha aniqlovchi tizimli kategoriya.

Pedagogik texnologiya zamonaviy didaktika va pedagogika taraqqiyotining natijasidir. Pedagogikaning bugungi kungacha mavjud bo'lgan barcha rivojlanayotgan asosiy yo'nalishlari bo'yicha amaliy vazifalarni yanada yaxshiroq amalga oshirish yo'lidagi yangi bosqich deb hisoblash mumkin. Pedagogik texnologiya o'quv jarayonining tarkibi,



vositalari, usullari va shakllari ya'ni o'qituvchi bilan o'quvchi faoliyati bilan qattiq bog'langan. Pedagogik texnologiya - pedagogik faoliyatda ham, undan tashqarida ham o'qituvchi uchun zarur bo'lgan umumiy pedagogik mahorat majmuasidir. Zamonaviy o'qitishda pedagogik texnologiyalarini tashkil etishda aqliy va jismoniy kuchlarni ortiqcha sarflamasdan qisqa muddatda yuksak natijalarga erishish muhim talablardan biridir.

Chizmachilik predmeti yoshlarimizga texnik taraqqiyot bilan birga uyg'unlashish, u bilan muloqotga kirishish imkoniyatini beradi. Ta'lim va tarbiya tizimiga innovatsion yondashish o'quvchilarda yangi tajriba orttirishga intilish, ijodkorlik va tanqidchilik kabi fazilatlarni shakllantiradi, kelajakka ishonchni kuchaytiradi.

Mashina va mexanizmlarda, ularni yaratish va yig'ishda, qismlarni loyihalashda, uning chizilgani zarur. Demak, mamlakatimiz kelajagi rivojida ishtirok etadigan yoshlar uchun chizmachilik darslarini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida olib borilishi shart. Ushbu taklif etilayotgan innovatsion metodlar bir mavzudan ikkinchi mavzuga, bitta grafik tushunchani ikkinchisiga o'tishini ta'minlaydi. Mavzularni osonroq va chuqurroq egallashga yordam beradi hamda o'quvchilarni dars jarayonini diqqat bilan kuzatishga undaydi. O'qituvchi o'quvchilarning darsni qabul qilish faolligining susayganligini sezishi bilan 4-5 daqiqalik, darsning turiga qarab, innovatsion metodlardan birini o'tkazilishi tavsiya etiladi.

Innovatsion pedagogik texnologiyalar tashkil etilgan dars jarayonida quyidagi ijobiy holatlar vujudga keladi:

- xotira va diqqatning uzviy aloqadorligi oshadi;
- o'quvchining o'quv materiallariga va chizmachilik faniga qiziqishini orttiradi;
- o'quvchi bilan o'qituvchi orasida muloqot tezlashadi;
- o'quv jarayonidagi o'zaro hamkorlik vujudga keladi;
- o'qituvchi va o'quvchi bilim saviyasini boholay oladi;
- o'qituvchi va o'quvchining grafik ishlarni mustaqil bajarish uchun yo'naltira oladi;
- mustaqil bilimlarni o'zlashtirishga undaydi;

Odatda, o'quvchilar an'anaviy darslarda olgan bilimlari yetarli darajada puxta bilmasliklari va o'quvchilar ularni muayyan sharoitda tadbqiq qilishga qiynaladilar. Agar darslarda innovatsion pedagogik texnologiyalar qo'llanilsa, o'quvchilarning bilimlari mustahkam bo'lishiga umid qilsa bo'ladi. Chunki innovatsion pedagogik texnologiyalar faol qatnashgan o'quvchi bilimini hayajon va zavq-shavq bilan o'zlashtiradi. Bunday bilim mustahkam bo'lib, o'quvchining xotirasida ko'p yillar saqlanadi va kezi kelganda o'quvchi uni eslaydi hamda amalda qo'llay oladi.

Qisqa muddatda o'quvchilarga ma'lum nazariy bilimlarni yetkazish, ayrim fanlar bo'yicha bilim va ko'nikmalarning paydo bo'lishi, shuningdek, o'quvchilar faoliyatini nazorat qilish, o'quvchilar bilimini baholash, amaliy topshiriqlarni bajarishga qiziqishni shakllantirish, o'qituvchilardan yuqori pedagogik mahorat



talab qilish, shuningdek ta'lim jarayoniga yangi yondashuv sifatida hozirgi bosqichda jamiyat taraqqiyoti texnika taraqqiyoti bilan tavsiflanadi.

Zamonaviy sharoitda ta'lim tizimini modernizatsiyalashning ustuvor yo'nalishlari quyidagilar sanaladi¹:

- elektron axborot-ta'lim resurslarini yaratish;
- o'qitishning mavjud va yangi texnologik shakllarini o'zaro muvofiqlashtirish;
- talabalar tomonidan o'quv va mutaxassislik fanlari asoslarining mustaqil o'zlashtirilishi uchun qulay pedagogik va texnologik shart-sharoitlarni vujudga keltirish.

Zamonaviy texnologik jarayonlar faoliyatning barcha sohalarida o'zaro ta'sir qiladi. Ayniqsa, axborot uzatish sohasida jadal rivojlanish va texnologiyalarning yangi o'zgarishlari kuzatilmoqda. Yildan yilga axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga ehtiyoj ortib bormoqda, kompyuter texnologiyalaridan foydalanish yaxshilanmoqda.

Ta'lim sifatini oshirish, o'quvchilarning tafakkur ufqlarini kengaytirish, fanlarni mustaqil o'zlashtirish faoliyatini kuchaytirish hozirgi davrning eng dolzarb vazifalari hisoblanadi.

Yana bir atama "**Innovatsiya**" (inglizcha-neoplazmadan) - neoplazma, yangilik, o'zgarish kabi tushunchalarni anglatadi. Innovatsiyalarni qo'llash asosan fan va texnologiya bilan bog'liq. Ammo innovatsiyalarni inson hayotiga tatbiq etish yil sayin kengayib, dolzarb bo'lib bormoqda va umuman ta'lim va tarbiya sohasida innovatsion texnologiyalarni qo'Nashda

katta muvaffaqiyatlarga erishilmoqda.

Innovatsiyalar - texnika, ta'lim va fan yutuqlari va xalq ta'limi tizimida yuqori professional usullarni qo'Nash, ta'lim sifatini oshirish sohasidagi yangiliklar. Samaradorlikni oshirish, ta'limga yangi pedagogik texnologiyalarni joriy etish. **Innovatsion texnologiyalar** - bu yangiliklarni hayotga tatbiq etish usullari va vositalari. Shuningdek, ma'lum g'oyalar va gipotezalarni yangilash orqali pedagogik texnologiyalarni qayta tiklash jarayoni [13-20].

Innovatsiya tushunchasi bilan birgalikda "Texnologiya" atamasi tez-tez ishlatiladi. **Texnologiya** yunon tilidan "techne" - san'at, "logos" - o'rganish (bilim, ta'lim) deb tarjima qilingan. Texnologiya keng ma'noda bilimlar hajmi, tor ma'noda - voqelikni qayta ishlash (radikal o'zgartirish) usullari to'plamidir.

Ta'lim innovatsiyalari - ta'lim sohasi yoki o'quv jarayonida mavjud muammoni yangicha yondashuv asosida yechish maqsadida qo'llanilib, avvalgidan ancha samarali natijani kafolatlay oladigan shakl, metod va texnologiyalar.

Ta'lim va tarbiya jarayoniga innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali o'qituvchi yaratilayotgan yangi sharoitlarga tayyor bo'lishi kerak. Innovatsion texnologiyalari asosida "Innovatsion maktablar" tarmoqlarini tashkil etish zarur. Bu maktablarda barcha fanlarni o'qitishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalaniladi. Shunda "Ustoz-shogird" zanjirida "O'qituvchi-kompyuter-shogird" tizimi paydo bo'ladi. Texnologiyalarni innovatsion texnologiyalar, muhandislik



texnologiyalari, axborot texnologiyalari, telekommunikatsiya texnologiyalari deb tasniflash mumkin [21-25].

R.N.Yusufbekova innovatsiyalarni pedagogik nuqtayi nazardan ko'rib chiqishga,... Rossiyalik olimlar - A.I.Prigojin, B.V.Sazonov, V.S.Tolstoy, N.P.Stepanovlar esa innovatsion jarayon hamda uning tarkibiy qismlarini o'rganishga e'tiborni qaratgan¹.

Mohiyatiga ko'ra innovatsion

faoliyat ilmiy izlanishlar, ishlanmalar yaratish, tajriba-sinov ishlari olib borish, fan-texnika yutuqlaridan foydalanish asosida yangi takomillashtirilgan mahsulotni yaratishdan iborat.

Dars mashg'ulotlarini innovatsion texnologiyalar, interfaol o'qitish usullaridan, o'yinli texnologiyalardan keng va samarali foydalangan holda amalga oshirilsa, o'quvchilarda faol va mantiqiy fikrlash qobiliyati, aqliy qobiliyati rivojlanadi

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Toshpulatov F. U., Norqochqorov R. E. O., Maxmudova X. N. Q. XALQ AMALIY SAN'ATINING CHIZMACHILIK FANI BILAN BOG'LIQLIGI //Academic research in educational sciences. – 2021. – T. 2. – №. 2.
2. Toshpulatov F. USE OF GEOMETRIC PATTERNS AND THEIR TYPES FROM ELIMINATIONS OF DRAWING AND APPLIED ART IN ARCHITECTURAL FACILITIES //Физико-технологического образование. – 2022. – Т. 1. – №. 1.
3. Toshpo'Latov F. U. et al. Bolalarni o 'yin texnologiyalari asosida kasb-hunarga qiziqishlarini shakllantirishda rivojlantiruvchi o 'yinlar //Science and Education. – 2021. – Т. 2. – №. 4. – С. 487-491.
4. Uralovich, Toshpulatov Fakhriddin. "Conducting classes on fine arts based on information and communication technologies." *International Engineering Journal For Research & Development* 6 (2021): 3-3.
5. Toshpulatov F. USE OF GEOMETRIC PATTERNS AND THEIR TYPES FROM ELIMINATIONS OF DRAWING AND APPLIED ART IN ARCHITECTURAL FACILITIES //Физико-технологического образование. – 2022. – Т. 1. – №. 1.
6. Uralovich T. F. Conducting classes on fine arts based on information and communication technologies //International Engineering Journal For Research & Development. – 2021. – Т. 6. – С. 3-3.
7. Ibroimov Sherzod Ibroim o'g'li BUGUNGI KUNDA PEDAGOGIK TEXNALOGIYALARNING AHAMIYATI VA ULARNI TARIX DARSLARIDA QO'LLANILISHI // Academic research in educational sciences. 2020. №4. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/bugungi-kunda-pedagogik-texnologiyalarning-ahamiyati-va-ularni-tarix-darslarida-qollanilishi> (дата обращения: 22.02.2022).
8. Садатов, Ч. Х., Г. Т. Нарматова, and М. Б. Хайдарова. "ОВЛАДЕНИЯ ГРАФИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ДЕТЕЙ В СРЕДНЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ШКОЛЕ." *Матрица научного познания* 8 (2020): 128-131.